

## Institutimizning Qarshi filialida ustozlarga ehtirom

TIQQXMMI Qarshi filialida “Eng ulug‘vor maqsad farzandlar kamoli” mavzusida bayram tadbiri o’tkazildi. Tadbirda filial barcha professor o’qituvchilari, talabalar va ota-onalar ishtirok etishdi. Tadbir talabalar tomonidan tayyorlangan nazmiy salom va ehtirom bilan boshlandi. Tadbirda filial talabalari tomonidan tayyorlangan, she’riy sahna ko’rinishi ustozlarga bo’lgan talabalarning mehri, hurmatini yaqqol aks ettiribgina qolmay, barcha yig’ilganlarning kayfiyatiga ko’tarinkilik qo’shdi.



Tadbirni badiiy qismida “Yer kadastri va yerdan foydalanish” yo’nalishi talabasi Murtozeva Dilorom tomonidan aytilan “Ustozlar” qo’shig‘i bayram ishtirokchilarining ruhiyatiga tetiklik va bardamlik baxsh etibgina qolmay, balki barcha professor o’qituvchilarni o’yinga chorladи. Tadbirda Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri xonandalari Maxmud Shavdirov va Adxam Sunnatovlarning qo’shiqlari yig’ilganlarni xushnud etib, ustozlarga ehtirom ramzini ham ifoda etdi desak, mubolag’a bo’lmaydi.



**Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**